



O'RTA OSIYO QADIMGI AHOLISI MIFALOGIYASIDA ILON OBRAZI BAQTRIYA VA MARG'YONA MISOLIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17498654>

Choriyeva Sedona Sharif qizi

Termiz tumani Ayritom mahallasi 24-maktab

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada O'rta Osiyo qadimgi aholisi mifalogiyasi va moddiy madaniyatida ilon obrazining shakllanishi va uning tavsifi tahlil qilingan. BMAK tadqiqotlarida ilon va ilonsimon tasvirlar va ular orqali namoyon qilingan obrazlar qadimgi sharq xalqlari mifologiyasi bilan taqqoslangan.*

KALIT SO'ZLAR: *Ibtidoiy jamoa, Ilon, Baqtirya, Marg'iyona, Oks sivilizatsiyasi, So'x iloni, Qadimgi sharq, ilon kulti, muhr, tumor.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируется формирование и характеристика образа змеи в мифологии и материальной культуре древнего населения Средней Азии. В исследованиях БМАК изображения змей и змееподобных существ, а также образы, представленные через них, сопоставляются с мифологией древних народов Востока.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Первобытное общество, Змея, Бактрия, Маргиана, Оксская цивилизация, Сохская змея, Древний Восток, культ змеи, печать, амулет.*

ABSTRACT: *This article analyzes the formation and characteristics of the snake image in the mythology and material culture of the ancient population of Central Asia. In studies of the Bactria-Margiana Archaeological Complex (BMAC), snake and serpentine depictions and the images they represent are compared with the mythology of ancient Eastern peoples.*

KEY WORDS: *Primitive society, Snake, Bactria, Margiana, Oxus civilization, Sokh snake, Ancient East, snake cult, seal, amulet.*

KIRISH

Ibtidoiy jamoa davri har qanday sharoitda ham barcha kelajak avlodlar uchun nihoyatda qiziqarli davr bo'lib qoldi. Chunki u keyingi barcha yuksak taraqqiyotning asosini tashkil qiladi, u o'zining boshlang'ich nuqtasi sifatida ajralishga ega. Hayvonot olamidan

odamning ajralib chiqishi bilan bog'liqdir.

Jahon xalqlari mifologiyasida turli obrazlar timsol sifatida gavdalanadi. Hayvonot olamida ayniqsa, sudralib yuruvchilar ichida ilonning insoniyat hayotida alohida o'rni bor. Ilon insonning



ma'naviy va moddiy olamida gohida salbiy, gohida ijobiy obrazlarda uchraydi.

O'rta Osiyo qadimgi aholisining mifologiyasi, ularning madaniy, diniy va tabiat bilan bog'liq qarashlarini aks ettirgan murakkab tizim bo'lib, ilonsimon mavjudotlar obrazining shakllanishi ushbu mifologik tizimning muhim va qiziqarli elementlaridan biridir. Ilonsimon mavjudotlarning O'rta Osiyo mifologiyasidagi o'rni, ularning tashqi ko'rinishi va ramzlashgan ma'nolari xalqlarning madaniyatini va dunyoqarashini chuqur o'rganish imkonini beradi.

MAVZUGA

OID

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilon obrazi O'rta Osiyo aholisi uchun yagona mohiyatni anglatmagan. Aksariyat tadqiqotchilar ilonlarni salbiy ramzlarni ifodalaganini ta'kidlashsa, boshqalari "muqaddas jonzo", va "unumdorlik" bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlashgan(Антонова, 1983, c.13-31). Fikrimizcha, ushbu ziddiyatli mohiyat davriy xususiyatlar bilan bog'liq.

Zero, ilon tasvirining O'rta Osiyo aholisi hayotidagi mifologik mohiyati tosh davridan boshlanib, o'rta asrlarda ham davom etgani qoyatosh va devoriy suratlarda o'z aksini topgan(Бернштам, 1952, c.62).

Sarianidi fikriga ko'ra, Baqtriya mifologiyasining eng muhim g'oyalardan biri - "hayot urug'i" ni o'g'irlash g'oyasi, yer yuzidagi hayotni uzaytirishning ramzi. Bunday sahnaning eng yaqqol namunasi sifatida Marg'iyonadan qorin ostida ilon bilan

yo'lbarsni aniq tasvirlaydigan tumorni keltirishim mumkin(Sarianidi, 1998, p.76).

M.H.Pottier arxeologik materialga asoslangan "hayot urug'ini" o'g'irlash g'oyasini Vedik adabiyotida ham topish mumkinligini ta'kidladi. M.H.Pottier hayot urug'ining o'g'irlanishi bilan kompozitsiyalar g'oyasi ba'zi Vedik e'tiqodlarida yanada takomillashgan degan oqilona xulosaga keladi(Pottier, 1984, p.86).

Ko'pgina tadqiqotlarda ilon kosmogenez va kosmogrammalarning eng muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kosmologik modellarda ilon ko'pincha olamning burchagi va shu bilan birga uning quyi qismini tashkil etgan. Aftidan bu xususiyatlar BMAK vakillari uchun ham begona bo'lmagan.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy mantiqiy tahlil va xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida O'rta Osiyo qadimgi aholisi mifologiyasidagi ilon va ilonsimonlar obrazi yozma, arxeologik va etnografik manbalar asosida yoritib berish maqsad qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rta Osiyoda hosildorlik bilan bog'liq bo'lgan ilonga topinishning paydo bo'lishi mil. avv. IV ming yillik eneolit davriga oid idishlarda, mil. avv. III ming yillikdan boshlab hosildorlik va xonadon o'chog'i ilohasi ramzi sifatidagi ayol haykalchalarining ko'krak va bel qismida



uchraydi(Литвинский, 1952, с.42). Bu an'ana mil. avv. II ming yillikda ham qisman davom etgan.

Farg'ona (So'x qishlog'i) va Toshkent hududlaridan topilgan bronza davriga oid ikki boshli yoki chirmashib

turgan qo'sh ilonlar haykalchalari (1-rasmga qarang) ham tadqiqotchilar tomonidan asosan hosildorlik va ikki olamni anglatuvchi tumorlar bo'lgani ta'kidlangan(Кастанье, 1913, с.17-24).



1-rasm. Farg'ona So'x mil.avv. 2-ming yillika oid tosh tumor (O'zbekiston tarxi davlat muzeyidan).

Qadimgi Sharq mamlakatlari (Qadimgi Hindiston, Mesopatamiya, Misr, Xitoy) da ilonlar boylik va farovonlik ramzi sifatida gavdalangan. Bobilda ilonni "Yer ma'budasining bolasi" deb hisoblashgan, Misrda ular ilonni "yerning hayoti" deb atashgan va dunyoning ko'plab xalqlari shunga o'xshash g'oyalarga ega edilar (2-rasmga

qarang). Shu bilan birga, qadimgi sharq xalqlari mifologiyasida ilon boshqa ijobiy fazilatlarga ega edi: abadiy yoshlik (terining yillik o'zgarishi–yoshartirish), o'lmaslik, kuch, donolik. Xalq og'zaki ijodida maqol va naqlarida ham "Ilon kabi dono bo'l" iborasi bor edi(Эсанов, 2007, с.87).





2-rasm. Afinadagi qadimgi yunon barelyefida muqaddas ilon tasviri


Ilon terisining har yili po'st tashlashi ko'plab qadimgi xalqlar uchun abadiy yoshlik g'oyasini va abadiylik g'oyasini ramziy qiladi. Sovuq mavsumda teshiklarida yashiringan va bahorda yana paydo bo'lgan ilonlar xtonik e'tiqodlar va unumdorlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq edi. Elam ilonlarida ayollik tamoyilini aks ettirgan. Taxminlarga ko'ra, Baqtriya va Shahri Soxtada ilonlar tasvirlangan muhrlar asosan ayol qabrlarida topilgan, ammo bunday kuzatuv qo'shimcha tasdiqlashga muhtoj.

Baqtriya mifologiyasida yuqorida sanalgan odam boshli katta zaharli ilonlar ham bo'lib, ular tahdid soladigan holatda emas, balki vaziyatga qarama-qarshi jilmayayotgan holatda tasvirlanadi. Ehtimol, bu tasvirlar mahalliy qabilalar qarashlariga ko'ra istisno holatlarga ega bo'lishi mumkin. Odam boshli katta zaharli ilonlar Hindiston va Elam mifologiyasida ommabop ekanligi fikrini yagona isbot deya qabul qila olmaymiz. E.Porada soqolli odam yuzli ilonlarni Elamning odatiy tasviri(Porada, 1994, p.46) deb hisoblab, Baqtriya muhrlarida bu tasvirga umumiy o'xshatmalar topgan. Baqtriya gliptikasiga oid mashhur Baqtriya kumush boltasi maxluqqa o'xshash, soqol yuzli, shox boshli va ilon

bo'yinli, yo'lbars tanali ajdarlarning noyob tasvirlariga ega. Umuman olganda, Baqtriya ikonografiyasi ajdarlari bizga Mesopotamiya maxluqlarini eslatadi, lekin Baqtriya tasvirlari mazmunijihatdan Mesopotamiya tasvirlaridan farqlanadi. Faqatgina yangi ashyoviy materiallar bu kabi o'ziga tortuvchi tasvirlarga oydinlik kiritishiga umid qilamiz.

Bronza davriga xos kichik hajmdagi san'at buyumlaridagi ilon tasviri O'zbekiston, Turkmaniston va Afg'oniston hududlarida ko'p uchraydi. Sopollitepa (Janubiy O'zbekiston) yodgorligidan to'rtta ilon tasviri tushirilgan muhr topilgan(Asqarov, 1977, b). Shimoliy Afg'onistonda topilgan halqali taqinchoq muhrda ilon yoki ajdaho ustida o'tirgan xudo qiyofasi tasvirlangan(Сарианиди, 1977, с.89).

Ilon kulti va ayol qiyofasidagi hosildorlik ilohasining mujassamlashuvi miloddan avvalgi III-ming yillikka oid ko'plab haykalchalarda o'z ifodasini topgan. Ba'zi namunalarda ko'krak orasida ilon shaklidagi ramziy tasvirni uchratish mumkin(3-rasmga qarang). An'anaga ko'ra ayol ma'budalar yelka va ko'krak qismi to'liqinsimon ilon tasviri bilan tasvirlangan (Namozgohtepa, Oltintepa, Xumpuztepa).



3-rasm. G.N. Lisitsina. 1964-yilda Janubiy Turkmanistondagi Geoksyurdan topilgan ayollarning terakotasi (Сарианиди, 1965, с.30).

Ilon Baqtriya va Marg'iyona ob'yektlarida juda keng tarqalgan ikonografik element hisoblanadi. Alohida elementlar sifatida taqdim etilgan ilonlar bu yerda ko'rib chiqilmaydi, lekin boshqa elementlar bilan bog'liq holda muhokama qilinadi. Baqtriya va Marg'iyona tosh tumorlarida ko'pincha o'simliklar tasvirlangan asosan ba'zi ignabargli butalar, ko'knorlar, lolalar va efedra. Ko'knorlardan lolalarni ajratish oson emas, lekin bir holatda, botaniklarning so'zlariga ko'ra, bizda albatta lola bor (Pottier, 1984, p.150). Boshqa holatda, dumaloq gulli va ikkita katta bargli o'simlik orqasida o'ralgan ilon tasviri, o'simlik, shubhasiz, ko'knor. Ushbu noyob kompozitsiya, boshqa o'simlikni emas, balki ko'knorni qo'riqlaydigan sudraluvchi bilan, giyohvandlik xususiyatlari tufayli ko'knorning o'ziga xos rolini tushunish uchun juda muhimdir. O'simlikshunoslar tahlil qilgan ko'knorlar ko'plab Baqtriya va Marg'iyona tumorlariga o'yib yozilgan deb hisoblashadi.

O'rta Osiyoda ilonga nisbatan munosabatga oid etnografik materiallar ikki xil munosabatni ifodalaydi. Pomirda ilon xayrli mavjudot sifatida talqin etilgan. M.S.Andrevning ta'kidlashicha, chorva qo'rasiga (molxonaga) ilonning kirishi, chorvaning ko'payishiga olib kelgan (Андреев, 1953, с.222). G.P.Snesarev fikriga ko'ra, Xorazmda ilonga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy qarashlarni kuzatish mumkin (Снесарев, 1983, с.46-49). Etnograf A.K.Pisarchikning Konibodom va Buxorodagi kuzatuvlariga oid yozuvlari alohida ahamiyatga molik. Masalan Konibodomga oid bitiklarida quyidagilar bayon etiladi. "Inson ruhi uning vafotidan so'ng qush, ajdaho yoki ilonda mujassamlashadi. Uy, mozor, qabristonlarda yashovchi ilonlarni o'ldirish taqiqlanadi. Buxoro eronilari ilonarni ikkiga: zararli va zararsizga-vafot etganlar ruhining mujassamlashmasi bo'lishadi". Tojik etnografi M.Hamidjonovning bolalar kiyimidagi ilon tasvirining apotropik (yovuzlikdan asrovchi) xususiyatiga oid qiziqarli



materiallar ilova qilingan maxsus maqolasi chop etilgan (Хамиджанов, 1960, c.220).

O'rta Osiyo xalqlari orasida ilon va ilonsimonlar kultining turli xil ko'rinishlari va e'tiqodiy qarash sifatida obrazlari mavjud bo'lib, bu mifalogiya va afsonalarda qolaversa,

I-jadval

O'rta Osiyo xalqlari mifalogiyasida ilon va ilonsimonlar obrazi

/r	Davlatlar va xalqlar	Ilonlar va ilonsimonlar aks etgan timsollar	Ijo biy obr azda	Sal biy obr azda
	Qadimgi Baqtriya	Hosildorlik, cheksiz vaqt va abadiy hayot timsoli, donolik, farosat, iroda, go'zallik ramzlari (Ashirov, 2001, 32-b)	X	
	Marg'iyona	Hosildorlik, yomg'ir, namlik	X	
	Xorazm	Salbiy va ijobiy timsollarda	X	X
	Pomir va tojik xalqlari	Hayrli mavjudot, yovuzlikdan asrovchi	X	
	Janubiy Turkmaniston	Buloqlar va suv omborlari qo'riqchisi, himoyachi	X	

XULOSA

“O'rta Osiyo qadimgi aholisi mifologiyasida ilon obrazi (Baqtriya va Marg'iyona misolida)” mavzusini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tadqiqot natijasiga ko'ra, ilon obrazi O'rta Osiyo aholisi uchun yagona mohiyatni anglatmagan. Aksariyat tadqiqotchilar ilonlarni salbiy ramzlarni ifodalaganini ta'kidlashsa, boshqalari

moddiy manbalarda o'z aksini topgan. Bizning kuzatishlarimizcha, ilon va ilonsimonlar kulti qanday ma'noda kelganligi, ularning hayotida qanday obrazlarda tal'qin etilganligini quyidagi jadval orqali o'z ifodasini topgan.

“muqaddas jonzot”, va “unumdorlik” bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlashgan. Fikrimizcha, ushbu ziddiyatli mohiyat davriy xususiyatlar bilan bog'liq. Zero, ilon tasvirining O'rta Osiyo aholisi hayotidagi mifologik mohiyati tosh davridan boshlanib, o'rta asrlarda ham davom etgani qoyatosh va devoriy suratlarda o'z aksini topganligi tahlil etildi;



Qadimgi Baqtriya va Margʻiyona gliptikasida ilonlar va ajdarlar obrazi bosh oʻrinlardan birini egallagan. Ular gliptikada har xil shakllarda-boylikni qoʻriqlovchi mavjudotlar, ozor beruvchi kuchlar va bir-biri bilan doimiy kurashuvchi raqobatchilar sifatida ifodalanib, bu qadimgi xalqlar dunyoqarashi va psixologik dunyosining rang-barangligidan dalolat beradi;

Baqtriya, Margʻiyona davlatlari yodgorliklaridan topilgan topilmalar tahlili shuni anglatadiki Mesopatamiya, Elam, Xarappa va Eron hududlari gliptikalari bir-biriga juda yaqinligiga guvoh boʻlamiz;

Umumiy xulosa asosida shuni alohida taʼkidlash kerakki, qadimgi Oʻrta Osiyo aholisi mifologiyasida va moddiy madaniyatida ilon va ilonsimonlar mavjud boʻlgan va ular dastlab ijobiy

obrazlarda ilohiylashtirilgan. Tadqiqot tahlillari holi bu natijalar yetarli emasligini, keyingi ekspeditsiya, izlanish va tadqiqotlar orqali yanada koʻproq maʼlumotlar ochib borilishini koʻrsatadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Oʻrta Osiyoning qadimgi davriga oid mifologik tasvirlarning yozma manbalar va etnografiya maʼlumotlari bilan qiyoslagan holda “Oʻrta Osiyo xalqlari mifologiyasida ilon obrazi” nomli fotoalbomlar va tarixiy galereyalar yaratish orqali, “Oks sivilizatsiyasi” tarixini yorituvchi tadqiqotchilarni koʻpaytirish va ularni jalb qilish;

Oliy taʼlim tizimidagi Oʻzbekiston tarixi, dinshunoslik, arxeologiya va etnologiya taʼlim yoʻnalishlari uchun “Oʻrta Osiyo xalqlari mifologiyasi” nomli darslik va ensiklopedik lugʻat yaratishni taklif beramiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Антонова, Е.В. Мургабские печати в свете религиозно мифологических представлений первобытных обитателей юга Средней Азии и их соседей—В кн: Средняя Азия, Кавказ и зарубежный Восток в древности. М: Наука, 1983. — С. 13-31.
2. Аскарлов А. “Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана”. Ташкент: Фан, 1977.
3. Ahmadjon Ashirov “Avesto”dan meros marosimlar. Toshkent-2001.32-b.
4. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып. 1. — Тр. АН ТаджССР. 1953. т. VII. 222-b.
5. Бернштам А.Н. Наскальные изображения Саймалы-таш. — СЭ, 1952, №2. — С. 62, рис. 12.
6. Sarianidi V.I. Myths of Ancient Bactria and Margiana on its Seals and Amulets. — М: Pentagrophic, 1998.
7. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. М.: Наука, 1977. [ср. 89]
8. В.И. Сарианиди. Памятники позднего энеолита Юго-Восточной Туркмении. САИ, БЗ-8, ч. IV. М., 1965, табл. X, 30.



9. Снесарев Г.П. Как вы относитесь к змеям? Наука и религия, 1983, №-46-49.
10. Pottier M.-H. "Materiel funeraire de la Bactriane Méridionale de l'age du bronze". 1984. 86-p.
11. Литвинский Б.А. Намазга-тепе по данным раскопок 1949-1950 гг. – СЭ, 1952, №4. – С. 42.
12. Кастанье Г. Культ змей у различных народов и следы его в Туркестане. — ПТКЛА. Год семнадцатый. Ташкент, 1913. – С. 17-24.
13. Эсанов М. "Авесто" жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Т.ф.н. дис... –Т., 2007. – Б. 87.
14. Porada E/ Seals and Related from Early Mesopotamia and Iran \ Early Mesopotamia and Iran: Contact and conflict 3500-1600 B.C. - L., 1994. - P.46;
15. Массон В.И., Сарианиди В.И. Среднеазиатская терракота эпохи бронзы. М.: Наука, 1973
16. Хамиджанова М. Некоторые представления таджиков, связанные змеёй. Тр. АН ТаджССР. 1960, 220-b.
17. <https://academy.uz/uz/news/> O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidan.